

**MATNLI ARIFMETIK MASALALAR, ULARNI YECHISHNING VA TASNIFFLASHNING  
BOSQICHLARI**

**Rahmonova Farog'at Axadjonovna**  
*Farg'ona viloyati Bag'dod tumani 46-maktabning*  
*Matematika fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada arifmetik xisoblashlarga doir matinli masalalarning yechish bosqichlari bayon etilgan. Mavzu yuzasidan bir nechta masalalar yechilishlari ham keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** matinli masala, masala sharti, yechish bosqichlari, mantiq, mantiqiy fikr.

Matematika fanini o`qitishda masalalar yechish juda muhim o`rin tutadi, chunki masala yechishda maqsad-o`quvchilarining nazariy biliblarini har hil amaliy masalalarni yechish sohasida ongli ravishda tez va qat`iylik bilan tadbiq qilishga o`rgatishdir. Masala yechish – matematik nazariyani amaliyatda tadbiq qilishdan iboratdir. Matematika o`qitishda masala yechishning pedagogik mohiyati naqadar katta ekanligi va o`qituvchi o`z ishini rejalashtirishda ham, o`qitish vaqtida ham bunga qanchalik e`tabor berish kerakligi shu aytilganlardan ham yaxshi tushuniladi.

Masalalar yechish yo`li bilan har-xil matematik tushunchalar vujudga keltiriladi, turli arifmetik operatsiyalar tushunib olinadi, masalalr ko`pincha ba`zi nazariy qoidalarni chiqarishda asos bo`ladi. Masala o`qituvchining matematik nutqini boyitishga va o`stirishga yordam beradi. Masalalar hayotdagi turli faktlar orasidagi miqdoriy munosabatlarni anglashga yordam beradi. Tegishli mazmundagi masalalar o`quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda vosita bo`ladi. O`quvchilarining mantiqiy fikrlashining o`sishida, ularning miqdorlar orasidagi bog`lanishlarni aniqlashida, tog`ri hulosalar chiqara bilishda masalalar ayniqsa muhim o`rin tutadi.

Va ayniqsa, 5 - 6 - sınıf matematika kursidagi masalalarni yechishga o`rgatish orqali, o`quvchilarining mantiqiy fikrlashining o`sishi, shu davrda olingan bilimlar, o`quv ko`nikma va malakalari kelgusida algebra va geometriya kursini o`rganish uchun, shuningdek, o`quvchilarining kelajakda matematika sohasida yetuk mutahasis bo`lib yetishishlari uchun asos bo`ladi.

Matematika o`qitishda masalaning mohiyati nimadan iborat?

Arifmetik matnli masala deb, izlangan miqdor bilan ko`rsatilgan bog`lanishda bo`lgan miqdorlarning son qiymatlari yordamida izlanayotgan miqdorning son qiymatini topishdan iborat talab tushuniladi.

Shunday qilib, masalani yechish uchun quyidagilarni o`z ichiga olgan shart mavjud bo`lishi kerak: a) miqdorlarning son qiymatlari; b) berilgan miqdorlarning

orasidagi va berilgan miqdorlar bilan izlangan miqdor orasidagi bog`lanish to`g`risida ba`zi ko`rsatmalar; v) javob berish uchun izlangan son topilishi kerak bo`lgan savol.

Berilgan sonlar bilan izlangan sonlar orasidagi bog`lanish oshkor holda, ya`ni izlangan sonni topish uchun berilgan sonlar ustida qanday amallarni qay tartibda bajarish kerakligi ko`rsatib berilgan masalalar odatda sonli misollar deb ataladi. Bu hildagi misollarni yechishda o`quvchilardan simvollar bilan ko`rsatilgan amallarni bajarish talab etiladi. Bunday misollar ko`pincha hisoblash malakalarini o`stirish va mustahkamlash uchun ishlataladi.

Berilgan va izlangan miqdorlar orasidagi bog`lanishlar oshkor holda berilmagan, balki huddi masalaning savoli singari faqat so`zlar bilan aytilgan masala tom ma`noda masala yoki matnli masala deb ataladi.

Xar qanday masalaning matnidagi elementlariga qo`yilishi lozim bo`lgan talablarga to`xtalib o`tamiz. Sonli material o`quvchilarning matematik tayyorgarligiga mos kelishi, berilgan va izlangan miqdorlarning son qiymatlari real bo`lishi kerak. Shuningdek, masalaning sharti va savoli uning shartidagi son ma`lumotlarga muvofiqlashgan aniq va ravshan ifodalashgan bo`lishi kerak.

Shartning soni berilganlar va izlanganlar soniga muvofiq bo`lishi kerak. U holda masalaning bitta yechimi bor va aniq masala bo`ladi.

Agar masaladagi shart soni yetarli bo`lmasa, masalaning bir nechta yechimi bo`lishi mumkin va bunday masala noaniq masala deyiladi.

1-misol. «Zavod 2700 ta qishloq xo`jalik mashinalarini tayyorlab, 3ta viloyatga jo`natdi. Xar qaysi viloyat nechta mashina olgan?». Masalaning shartida mashinalar viloyatlar orasida qanday taqsimlangani: teng taqsimlanganmi yoki boshqachami, ko`rsatilmagan. Bu masalaning yechimi ko`p bo`lishi mumkin.

2-misol. «86.7 metr uzunlikdagi temir-beton devor bilan qanday to`g`ri to`rtburchak shaklidagi maydonni o`rab olish mumkin?». Shartdagi son (temir-beton uzunligi) masalaning aniq yechilishi uchun yetarli emas. Bunday holda masala noaniq bo`ladi.

Ortiqcha sharti bo`lib, shu ortiqcha shartni topishni talab qilinadigan masalalar ham uchrab turadi. Bunday masalalarni o`quvchilar o`zlari mustaqil tuzgan masalar ichida uchratish mumkin. Misol keltiramiz.

Masala. «Zavod 2700 ta qishloq xo`jalik mashinalari tayyorlab, uni uch viloyatga jo`natdi. Viloyatlarning biri ikkinchisidan 150 ta ortiq mashina oldi, ikkinchi viloyat uchinchisidan 120 ta ortiq va birinchi viloyat uchinchi viloyatdan 270 ta ortiq mashina oldi. Xar bir viloyat nechta qishloq xo`jalik mashinalari olgan?».

Bu masalada bitta shart ortiqcha, lekin shartlar bir-biriga qarama-qarshi emas. Masalaning aniq yechimi bor: 1040, 890, 770. Masalani yechishda birinchi shartdan boshqa, shartlarning istalgan birini tashlab yuborish mumkin.

Ayrim hollarda masaladagi ortiqcha shartlar ziddiyatli bo`lishi ham mumkin.

Masala. «Zavod uch viloyat uchun 2700 ta qishloq xo`jalik mashinalari tayyorlab qo`ydi. Birinchi viloyat ikkinchidan 150 ta ortiq mashina olishi kerak, ikkinchi viloyat uchinchidan 120 ta ortiq va birinchisidan ikki marta kam mashina olishi kerak. Xar qaysi viloyat nechta mashina oladi?».

Bu yerda bitta ortiqcha shart bor va shartlar bir-biriga zid. Masalaning aniq yechimi bo`lishi mumkin:

a) agar oxirgi shart tashlansa, uning yechimi: 1040 , 890 , 770 ; b) agar birinchi shart (mashinalarning umumiy soni 2700) tashlansa uning yechimi : 540 , 390 , 270 bo`ladi ; v) agar ikkinchi shart tashlansa , u holda masalaning yechimi : 1290 , 765 , 645 bo`ladi; g) agar uchinchi shart tashlansa , yechim : 1140 , 990 , 570 bo`ladi.

Matnli masalalar odatda soda va murakkab bo`ladi. Soda masalalar-bir amal bilan yechiladigan masalalardir. Masalan: tikuvchilik sexida 320 ta ko`ylak tikildi , buning uchun ombordagi materialning  $-\frac{5}{8}$  bo`lagi sarflandi. Hamma ko`ylaklarga qancha material ketgan?

Agar masalani yechishda birdan ortiq amal bajarish talab etilsa, u , ikki yoki undan ortiq sodda masalalarga ajratiladi. Shuning uchun bunday masalalar murakkab masalalar deyiladi. Bundagi murakkab so`zini masalaning og`ir-yengilligi jihatidan emas, balki uning tarkibi jihatidan tushinish lozim.

Masalalarni sodda va murakkab masalalarga qat`iy ravishda ajratish mumkin emas. Masalan : bir nechta qo`shiluvchini qo`shishga doir masalani bitta qo`shish amali bilan yoki bir necha qo`shish amallari bilan yechish mumkin, ya`ni bu masalani soda masalaga kiritish ham, murakkab masalaga kiritish ham mumkin. Sonni uning bo`laklaridan topishga doir masalalar soda masaladek bir amal - kasrga bo`lish amali bilan yechilishi mumkin yoki ikki amal bilan (kasrning suratiga bo`lish va maxrajiga ko`paytirish bilan) yechish mumkin, ya`ni murakkab masalalar qatoriga kiritish mumkin.

Umuman olganda, masalalar yechish bilan quyidagi maqsadlarga erishiladi:

1) o`quvchilar masalalar yechishar ekan, miqdorlar orasidagi orasidagi tushinishni, ular orasidagi munosabatni topishni tegishli amalni tanlashni o`rganadilar;

2) masalalar shartlarida turmushdan olingen materialdan foydalanish matematikani hozirgi zamon bilan bog`lanishga , o`quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi;

3) masalalarda ko`pgina matematik tushunchalar, masalan, bo`lishning ikki turi, ayirmasi va parrali nisbatda orttirish va kamaytirish, amallar qo`llanishning turli hollari va hokazolar aniqlanadi;

4) masalalar yechishda u yoki bu amalning qo'llanilishi matematik malakalarni mustahkamlaydi;

5) atrofdagi turmushdan olingan masalalarni yechish o'quvchilarining mакtabda oлган bilim asoslarini turmushda ishlata biladigan qilib tar5biyalaydi;

6) masalalar yechish matematika mashg`ulotlariga qiziqish va havas uyg`onishiga yordam beradi.

Masalalarni muayyan bir sistemaga solishning, guruhlarga ajratishning dastavval o`qituvchi uchun axamiyati kattadir. Masalalarni turlarga ajratish (klassifikatsiyalash, tasniflash) ularni yechishda ishlatiladigan mulohazalarning o`ziga hosligi bilan bir-biridan farq qiladigan hamma hillarini hisobga olishga, o`quvchilarni o`rgatishda yengildan og`irga qarab borishni amalga oshirishga imkon beradi.


Masalalarni tasniflash prinsiplarini aniqlash bilan ko`pgina metodist olimlar shug`ullanib kelganlar, ammo hanuzgacha bu prinsiplar to`lasicha shakllantirilgani yo`q.

Mavzuni o`rganish jarayonida biz shuni aniqladikki, ba`zi metodistlar masalalarni mazmuniga qarab ajratadilar: foyda va zararga doir masalalar hovuzlarga suv to`ldirishga oid masalalar, birqalikda ishlashga doir masalalar, uchrashma harakatga va hokazolarga doir masalalar. Ayrim metodistlar esa masalalarni amallarga va amallarning soniga qarab sistemalashtirishni tavsiya etadilar.

Masalalarning shartlarining mazmuniga qarab turlarga ajratish mumkin emas, chunki mazmun xilma-hilligi jihatidan turlar juda ko`p bo`lib ketadi, bu xil ajratish o`quvchilarining masala yechish usullarini o`rganish jixatidan ham noqulay, chunki mazmuni xar-hil masalalar bir xil usul bilan yechilishi mumkin. Masalan, ma`lum vaqt ichida oqimga qarshi tomonga bosib o`tilgan yo`l bilan ma`lum vaqt ichida oqim tomonga bosib o`tilgan yo`l ma`lum bo`lsa, daryoning oqim tezligini aniqlashga doir masalalar, yig`indi va ayirmasiga qarab sonning o`zini topishga doir masalalar kabi yechiladi.

Masalalarni ulardagi amallar soniga qarab klassifikatsiyalash ham maqsadga muvofiq emas, bu prinsip o`qitishda masala yechish usullarini o`rganishga ham, xar-hil masalalarni yechishda mulohazalar qila bilishga ham yordam bermaydi.

1958 yili Buxarestda chop etilgan Kitsening «Arifmetik masalalar yechim metodlari» asarida muallif quyidagi klassifikatsiyani keltiradi:



Bu aytilganlardan ko`rinadiki, masalalar tasniflashniq yagona prinsipi mavjud emas.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Xaydarov B. Q. Matematika 5-sinf : umumiy o'rta ta'lif muktabalarining 5-sinfi uchun darslik, 2-qism. Toshkent :, 2020.
2. M. A. MIRZAAHMEDOV va boshqalar. Matematika 6-sinf: umumiy o'rta ta'lif muktabalarining 6-sinfi uchun darslik. Toshkent: O'qituvchi – 2017 yil.
4. "O'rta maktabda masalalar yechish" / V – X sinf matematika o'qituvchilarining tajribalaridan. N. Nikitinning umumiy taxriri ostida.O'quvpeddavnashr,1956y.
5. Velikoslavinskiy A. "Arifmetik masalalarning asosiy tiplari va ularni yechish metodlari". T. O`zbekiston Davlat nashriyoti. 1943y.